

*O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish
va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat
Qo'mitasi*

*Toshkent Axborot Texnologiyalari
Universiteti*

PAT kafedrası

Referat

*Mavzu: Pochta jo'natmalariga ishlov berish jarayonining
asosiy bosqichlaril. Yozma korrespondensiyalarni
saralash*

131-11 guruh

Bajardi: Shoymardanov N.

Tekshirdi: Achilov E.

Toshkent 2014

Reja:

- 1.Pochta jo"natmalariga ishlov berish jarayonining asosiy bosqichlaril.*
- 2.Yozma korrespondensiyalarni saralash.*
- 3.Kalit so'zlar*
- 4.Foydalanilgan adabiyotlar*

Pochta jo'natmalariga ishlov berish jarayonining asosiy bosqichlari.

Mamlakatimizdagi yirik pochta korxonalarida hozirgi paytda ishlab chiqarish jarayonlarini to'la mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish borasida olib borilayotgan ishlar mehnat unumdorligini oshirishga, mahsulotlar tannarxini pasaytirishga, ishlab chiqarish sifati va samaradorligini ko'tarishga yordam beradi.

Zamonaviy pochta tamlar yuqori darajada mexanizatsiyalashgan sanoat tipidagi korxonalar bo'lib, ularda pochta jo'natmalariga ishlov berish uchun avtomatlashtirilgan texnika vositalari (maxsus mashinalar va uskunalar) keng qo'llaniladi.

Pochta jo'natmalariga ishlov berish borasidagi asosiy va qo'shimcha ishlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan maxsus pochtaga ishlov beruvchi mashinalar, mexanizmlar va qurilmalarga yozma korrespondensiyalarga ishlov berish uchun mo'ljallangan avtomatik ajratuvchi, ustiga shtamp bosuvchi va saralovchi mashinalar, jo'natmalarni va nashr o'ramalarini saralovchi yarim avtomat mashinalar, qop tikuvchi, o'rovchi, manzil yozuvchi va boshqa mashinalar kiradi.

Pochta korxonasi sexlarida tashish va yuklash-tushirish ishlarini bajarishda turli xil ko'tarish-tashish asbob-uskunalari qo'llaniladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- jo'natmalar, nashr o'ramlari, yozma korrespondensiyalar solingan qoplarni gorizontol, biror burchak ostida yoki vertikal tekislikda tashish imkonini harakatlanuvchi va statsionar tasmali, zanjirli konveyerlar va ko'targichlar;

- avtomashinalar va pochta vagonlariga pochta yuklash va tushirish uchun ishlatiladigan bo'limlari suriluvchi, qiyalik burchagi o'zgaradigan harakatlanuvchi va statsionar tasmali konveyerlar;

- korxonalar ichida, pochta vagonlariga yoki vagonlardan orqaga pochta solingan qoplarni, jo'natmalarni va elektr shataklagichlar, tirkama va qo'lda boshqariladigan pochta arxivlari;

- vokzal va aeroportlar qoshidagi pochta tashish bo'limlari, shahar aloqa korxonalar va nashriyotlar orasidagi pochta almashish hamda shahar ichida tashish uchun g'ildirakli va g'ildiraksiz konveyerlar;

- bino qavatlarida pochta tashish uchun yuk liftlar.

Katta hajmda yozma korrespondensiyalar jo'natuvchi tashkilotlarda, muassasalarda, korxonalarda markalovchi mashinalar o'rnatiladi. Natijada bu tashkilotlar markalar sotib olish va yopishtirishdan ozod

bo'ladi, bu esa markalar sarfini kamaytirishga, konvertlarni (xatjildlarni) markalash jarayonini mexanizatsiyalashga va pul hisob-kitoblari tizimini ancha soddalashtirishga olib keladi. Bundan tashqari, markalovchi mashinalar qo'llanganda pochta korxonasiga kelib tushgan korrespondensiyaga shtamp bosish zarurati yo'qoladi, ajratish ishlaridan so'ng u bevosita saralashga o'tkaziladi, natijada ishlov berish jarayoni ancha tezlashadi.

Pochta jo'natmalari — xatlar, jo'natmalar, nashrlar va banderollarga ishlov berish bo'yicha uzluksiz liniyalar maxsus pochtaga ishlov beruvchi mashinalar majmuasidan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan turli xil ko'taruvchi-tashuvchi mashinalar va uskunalar orqali bog'lanadi.

Pochta jo'natmalariga ishlov beruvchi uzluksiz liniyalar ishlab chiqarishni tashkillashtirishning nisbatan mukammal usuli bo'lib, bunda barcha amaliyotlar butun ishlab chiqarish jarayonida oldindan belgilangan grafik bo'yicha, minimal vaqt oralig'ida, yuqori darajada tashkillashtirilgan va o'zaro moslashtirilgan tarzda amalga oshiriladi.

Pochta jo'natmalariga ishlov beruvchi uzluksiz liniyalarni tashkil etishda ularning tarkibiga yarim avtomatlashtirilgan maxsus mashinalarni ham, to'la avtomatlashtirilgan maxsus mashinalarni ham kiritish mumkin. Ular bajaruvchi vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda, xatlarga avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berish uchun mo'ljallangan mashinalar tizimi ishlab chiqilgan va joriy etilgan bo'lib, ular xatlarni o'lchamlari va qattiqligi bo'yicha ajratuvchi, ustiga shtamp bosuvchi, manzil raqam kodi bo'yicha saralovchi avtomatlashtirilgan mashinalarni o'z ichiga oladi. Bunday mashinalar tizimini yaratishda texnikaviy masalalarni hal qilish bilan bir qatorda, pochta korxonalarini raqamli indeksatsiyalash tizimini ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq bo'lgan ko'plab tashkiliy tadbirlar o'tkazildi.

Pochta aloqasi korxonasining ishlab chiqarish faoliyati pochta jo'natmalarini jo'natuvchilardan qabul qilib olish, ishlov berish, belgilangan manzilga jo'natish va oluvchiga topshirishdan iborat.

Pochta jo'natmalari deb, pochta qoidalari bo'yicha o'ralgan va rasmiylashtirilgan jismlarga, shuningdek, belgilangan manzilga jo'natish va oluvchiga topshirish uchun pochta aloqasi korxonasiga topshirilgan nashriy matbuotlarga aytiladi.

Ma'lum vaqt oralig'ida qabul qilingan, ishlov berilgan, jo'natilgan va belgilangan manzilga topshirilgan pochta jo'natmalarining soni **pochta almashish** deyiladi.

O'zbekiston ichida jo'natish uchun mo'ljallangan pochta jo'natmalari **ichki**, chet davlatlarga jo'natiladigan yoki chet davlatlardan keladigan pochta jo'natmalari esa **xalqaro pochta jo'natmalari** hisoblanadi.

Alohida olingan pochta aloqasi korxonasiidagi ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rib chiqishda chiqayotgan, kirayotgan va tranzit pochta almashishlar farqlanadi.

Chiqayotgan pochta almashinuvi pochta aloqasi xizmatidan foydalanuvchilardan belgilangan manzilga jo'natish uchun qabul qilingan pochta jo'natmalaridan iborat. Ular mahalliy va boshqa shaharlarga jo'natiladigan jo'natmalarga ajratiladi. Bitta shahar, tuman markazi yoki shahar tipidagi punkt chegarasida, qishloq joylarda esa — bitta aloqa korxonasi ko'rsatayotgan hudud chegarasida jo'natiladigan va yetkazib beradigan pochta jo'natmalari **mahalliy**; yuqorida ko'rsatilgan hududlardan tashqariga jo'natiladigan va yetkaziladigan jo'natmalar **boshqa shaharlarga** yuboriladigan pochta jo'natmalari hisoblanadi.

Kirayotgan pochta almashinuvi oluvchilarga topshirish uchun pochta aloqasi korxonasiga kelib tushgan pochta jo'natmalaridan iborat.

Tranzit pochta almashinuvi korxonaga boshqa pochta aloqasi korxonalaridan ishlov berish va belgilangan manzil bo'yicha yana jo'natish uchun kelib tushgan pochta jo'natmalaridan tashkil topgan.

Aloqa korxonasi umumdavlat aloqa tarmog'i tizimidagi alohida ishlab chiqarish birligi hisoblanib, ma'lumotlarni uzatish jarayonini tashkillashtiradi. Aloqa xizmatlarining barchasini yoki bir necha turini taqdim etuvchi aloqa korxonasiga **birlashgan aloqa korxonasi** deyiladi. Agar bunday korxonaga o'ziga bo'ysunuvchi aloqa bo'limlariga ma'muriy (tuman, okrug, shahar aloqa tugunlari farqlanadi).

Faqat ma'lum bir tipdagi xizmatni ko'rsatishga moslashtirilgan aloqa korxonasi **ixtisoslashtirilgan aloqa korxonasi** deb ataladi. Bunday korxonalariga pochta tashish bo'limlari (PTB), temir yo'l qoshidagi pochta tashish bo'limlari (TYQP) kiradi.

Pochtamt barcha tipdagi pochta jo'natmalarini qabul qilish, ishlov berish, egalariga topshirish ishlarini, o'ziga bo'ysunuvchi aloqa korxonalariga rahbarlikni amalga oshiradi, shuningdek, telegraf va telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatadi. Belgilangan pochta yo'nalishlari bo'yicha pochta tashish, tranzit pochta jo'natmalariga, ayrim hollarda esa chiqayotgan pochta jo'natmalariga ishlov berishni PTB amalga oshiradi. Chiqayotgan, kirayotgan va tranzit pochta jo'natmalariga ishlov berish bo'yicha PTB va shahar aloqa tuguni vazifalarini,

shuningdek, pochta jo'natmalari to'plamini qabul qilish va berish ishlarini TYQP o'zida mujassamlantiradi.

Pochta jo'natmalari qanday joylanganligiga qarab quyidagi turlarga ajratiladi: xatlar, pochta varaqchalari (kartochkalari), banderollar, sekogrammalar, jo'natmalar, pul o'tkazmalari va tezkor pochta jo'natmalari.

Xat — konvertda (xatjildda) jo'natiladigan yozma xabar. Xatda shuningdek, hujjatlar, otkritkalar, fotosuratlar, chizmalar va boshqalar jo'natilishi mumkin.

Pochta varaqchalari (kartochkalar) — maxsus standart bosma qog'ozda yozilgan yozma xabar. Bu bosma qog'ozga gazetalardan qirqib olingan xabar, rasm, fotosurat va boshqa shunga o'xshash narsalar yopishtirilishi mumkin.

Banderol— qog'oz tasma bilan bog'langan yoki o'ralgan bosma nashrlar, ish qog'ozlari, madaniy-maishiy va ishlab chiqarishga oid buyumlardan iborat pochta jo'natmalari. Qabul qilib olishda o'ralgan buyumlarni tekshirib ko'rish mumkin.

Sekogrammalar— faqat ko'rlar uchun mo'ljallangan ichiga sekografik usulda yozilgan yozma xabarlar va nashrlar, sekografiya belgilari klishesi, ovozi yozuvlar, tiflotexnika vositalari solingan, ochiq holda topshiriladigan pochta jo'natmalari.

Jo'natma— mahkam qobiq bilan o'ralgan, turli moddiy buyum boyliklardan iborat bo'lgan, yuborishda qayd qilinadigan pochta jo'natmalari.

Pul o'tkazmasi— qayd qilinadigan pochta jo'natmasi bo'lib, jo'natuvchi aloqa korxonasiga kiritgan pul summasini oluvchiga yetkazishni pochtaga yuklaydi.

Tezkor pochta jo'natmasi— tezkor pochta tizimi bo'yicha jo'natiladigan yozma xabar, bosma nashrlar, pul hujjatlari, buyumlar va h.k. lardan iborat pochta jo'natmalari.

Pochta jo'natmalari to'lovning tartibi, qabul qilish, ishlov berish, jo'natish va topshirish usullariga bog'liq ravishda quyidagi toifalarga ajratiladi:

- xatlar — oddiy, buyurtmali va qiymati e'lon qilingan;
- pochta varaqchalari - oddiy va buyurtmali;
- banderollar - oddiy, buyurtmali va qiymati e'lon qilingan;
- sekogrammalar — oddiy va buyurtmali;
- jo'natmalar — oddiy va qiymati e'lon qilingan;
- pul o'tkazmalari — pochta va telegraf orqali.

Oddiy pochta jo'natmasi— jo'natuvchi patta bermay jo'natish uchun qabul qilib olish va oluvchiga qo'l qo'ydirmay topshirish bilan xarakterlanadigan pochta jo'natmalarining toifasi.

Buyurtmali pochta jo'natmasini tavsiflovchi belgi topshiruvchiga patta yozib berib, qabul qilib olish va oluvchiga imzo qo'ydirib topshirishdir.

Qiymati e'lon qilingan pochta jo'natmalari— qayd etiladigan pochta jo'natmasi bo'lib, ushbu jo'natma yo'qolib qolsa yoki unga shikast yetsa, jo'natuvchiga yoki oluvchiga to'lanadigan tovonning eng yuqori miqdorining qiymati ko'rsatiladi.

Qiymati e'lon qilingan pochta jo'natmalari, shuningdek, patta yozib berib qabul qiladigan va qo'l qo'ydirib topshiriladigan pul o'tkazmalari, oddiy jo'natmalar **qayd qilingan** pochta jo'natmalari deyiladi.

Pochta aloqasi xizmatlari naqd pul orqali yoki davlat belgilari bilan to'lanadi. Davlat belgilari sifatida pochta to'lovlarida pochta konvertlari va pochta varaqchalariga bosma usulida tushirilgan yoki yopishtirilgan pochta markalari, markalovchi mashinada tushirilgan belgilar, shuningdek, pochta aloqasini boshqaruvchi davlat organlari tomonidan ruxsat etilgan, pochta xizmatlari to'lovini tasdiqlovchi boshqa belgilar qabul qilinadi.

Markalovchi mashina klishesi qo'ygan belgida pochta to'lovining davlat belgisi, sana shtempeli va jo'natuvchi manzili bo'lishi kerak.

Pochta to'lovining davlat belgisida o'zbek tilida davlatning nomi ("O'zbekiston"), arab raqamlari yoki lotin harflari bilan to'lov summasi, chiqarilgan sana yoki qayd qilingan raqam ko'rsatiladi.

Bundan tashqari unda "Pochta" so'zi lotin harflarida ifodalanishi mumkin. To'lov summasi o'rnida to'lov to'la amalga oshirilganligini ko'rsatuvchi belgi qo'yilishi mumkin.

Agar pochta jo'natmasining o'lchamlari markalovchi mashina pochta jo'natmasining o'ziga belgi qo'yishiga imkon bermasa, unda alohida qog'ozga belgi qo'yilib, keyin u pochta jo'natmasiga yopishtiriladi.

Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarida pochta jo'natmalarining o'lchami va og'irligi bo'yicha quyidagi chegaralar belgilangan.

Oddiy, buyurtmali va qiymati e'lon qilingan xatlar— massa chegarasi 2 kg, o'lchamlari: 110X220, 114X162, 162X229, 229X324, 250X353 mm.

Pochta varaqchalari (oddiy va buyurtmali) - o'lchamlari 115X148 mm.

Banderollar— massasi ko'pi bilan 2 kg, bitta kitob solinganda — 3 kg, maksimal o'lchovlari: uch tomonining biri (uzunligi, eni, balandligi) 36 sm, uch tomonining o'lchamlari yig'indisi 65 sm dan oshmasligi kerak. Naysimon qilib o'ralgan banderollar uzunligi 70 sm, diametri 15 sm. Ayrim hollarda naysimon qilib o'ralgan banderollar, ichiga solingan jo'natmani bukish mumkin bo'lmasa (xaritalar, chizmalar va h.k. lar), 1,5 metrgacha uzunlikda qabul qilinishi mumkin. Minimal o'lchamlari: bir tomoni 10 sm, ikkinchi tomoni kamida 5 sm (qalinligi har qanday minimal o'lchamda bo'lishi mumkin), naysimon qilib o'ralganda uzunligi 10 sm, diametri 5 sm.

Sekogramma— maksimal massasi 7 kg, chegaraviy o'lchamlari: uzunligi, eni va qalinligining yig'indisi — ko'pi bilan 90 sm, eng katta o'lchami 60 sm. Rulonlar uchun — uzunligi va ikkilangan diametri yig'indisi — 104 sm dan katta bo'lmasligi; eng katta o'lchami 90 sm. Minimal o'lchamlari: 14X9 sm; rulonlar uchun — uzunligi va ikkilangan diametri yig'indisi — 17 sm dan oshmasligi; eng katta o'lchami — ko'pi bilan 10 sm.

Jo'natmalar— eng katta massasi 20 kg, maksimal o'lchamlari 50X50X40 sm. Eng katta ko'ndalang kesimining perimetri (aylanasining uzunligi) 1,5 metrdan oshmagan taqdirda, uzunligi 2 metrgacha bo'lgan buyumlardan iborat alohida jo'natmalar qabul qilinishi mumkin. Minimal o'lchamlari: bir tomonining uzunligi 10 sm va qolgan har bir tomonlarining uzunligi kamida 5 sm dan.

Tezkor pochta jo'natmasi— massaning yuqori chegarasi 31,5 kg. Barcha o'lchamlar 150 sm dan oshmasligi kerak. Uzunligi va perimetri (eng katta aylana bo'ylab uzunligi)ning summasi ko'pi bilan 300 sm.

O'lchamlari 114X162X5 mm, 110X220X5 mm bo'lgan pochta konvertlariga solingan va massasi 20 g dan oshmagan xatlar standart yozma korrespondensiyalariga kiradi.

Banderolning belgilangan maksimal massasidan 100 g oshib ketishiga ruxsat etiladi.

Jo'natmaning biror tomoni o'lchami 50X50X40 sm dan oshib ketsa, u katta o'lchamli (katta gabaritli) deyiladi.

Jo'natmaning massasi 10 kg dan oshiq bo'lsa, u og'ir vaznli deyiladi. 20 kg gacha og'ir vaznli jo'natmalarni qabul qilish va berish pochta aloqasi tashkilotlari tomonidan shu maqsadlar uchun maxsus ajratilgan pochta aloqasi obyektlarida amalga oshiriladi.

Massasi 3 kg, katta tomonining uzunligi 35 sm dan oshmaydigan, uch tomonining uzunliklari yig'indisi 65 sm dan oshmaydigan jo'natmalar kichik jo'natmalar deyiladi.

Pochtani tashish uchun maxsus tara (idish) ishlatiladi: yozma korrespondensiya va banderollar uchun zig'ir tolasidan tikilgan qoplar; qiymati e'lon qilingan pochta jo'natmalari va kichik jo'natmalar uchun charm va brizent xaltalar, qutilar; nashr mahsulotlari uchun — qog'oz yoki zig'ir tolali qoplar.

O'zbekiston Respublikasi ichida jo'natilayotgan jo'natmalar solingan xalta va qutilarning massasi 40 kg dan oshmasligi, korrespondensiya va gazetalar solingan qoplarning chegaraviy massasi — 15 kg, jo'natmalar va boshqa xil pochta joylangan konteynerlar — 1000 kg dan oshmasligi kerak.

Xorijga jo'natilayotgan korrespondensiya solingan qoplarning maksimal massasi 30 kg, jo'natmalar solingan qoplarniki esa 40 kg bo'lishi kerak.

Davlat standarti pochta varaqchalarining ko'rinishi va o'lchamlarini belgilab beradi. Texnik talablarga ko'ra, varaqchalar to'g'ri burchakli bo'lishi, tomonlarining perpendikularlikdan chetlanishi ± 1 mm dan oshmasligi, varaqchalar cheti tekis qilib qirqilgan bo'lishi lozim. Pochta varaqchalari tayyorlash uchun №0 tipografik silliq qog'oz, №1 ofset silliq qog'oz, fotografik, qalin qog'oz qo'llaniladi.

Konvertlar va pochta varaqchalarining old tomoni yagona namuna bo'yicha to'ldirilishi kerak (1.1-rasm). Konvertlar va pochta varaqcha-

The diagram shows the front of a postal envelope with the following fields and elements:

- Top left: "Jo'natuvchi manzili" (Address of the sender) / "Адрес отправителя" with a rectangular box.
- Below the sender address: "Kimdan/O'z koro:" (From whom/From where) with a horizontal line.
- Below that: "Qayerdan/O'z koro:" (From where/From where) with a horizontal line.
- Bottom left: A circular emblem of the Uzbekistan Postal Service.
- Bottom right: "Qiluvchi Indeks va manzili" (Index and address of the recipient) / "Индекс и адрес получателя" with a box containing six small squares for the index.
- Below the recipient index: "Kimga/Komu:" (To whom/To whom) with a horizontal line.
- Below that: "Qayerga/Kuda:" (To where/To where) with a horizontal line.

Konvertlar va pochta varaqchalariga pochta markalarini va kod kiritish hamda solishtirib o'qish maxsus belgilarni joylashtirish uchun

nisbatan qat'iy talablar qo'yiladi. Bunga sabab avtomatlashtirilgan shtamp bosuvchi va saralovchi mashinalarning tanlab olish qurilmasi uchun bu belgilar mo'ljil bo'lib xizmat qilishidir.

Hozirgi paytda, pochta yozma korrespondensiyalarga ishlov berish hajmi sezilarli darajada kamaygan bir sharoitda, uning tuzilishi o'zgarib bormoqda. Xalqaro va xizmat xatlarining hissasi oshib bormoqda. O'lchami 110X220 mm bo'lgan konvertlarga va derazachali konvertlarga talab paydo bo'lmoqda. Mashinada yozish usulida rasmiylashtirilgan va kodli shtampi to'ldirilgan korrespondensiyalar hissasi oshib bormoqda.

Bunday vaziyatni hisobga olib, yozma korrespondensiyalarni rasmiylashtirish, manzil yozish va kodlash qoidalarini, shuningdek, konvertlarning o'lchamlarini Xalqaro pochta aloqasi (XPA) hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga moslashtirish bo'yicha qaror qabul qilingan. Yangi standartlarni joriy qilish bilan bir vaqtda konvertlar va pochta varaqachalari ustiga manzil yozish, kodlash va rasmiylashtirish bo'yicha qo'llanma texnik materiallar chiqarilgan.

XPA hujjatlarida ko'rsatilgan talablar bo'yicha manzil va texnologik ma'lumotlar yoziladigan joyni o'zgartirish ko'zda tutilgan. O'lchamlari 110X220 mm, 169X220 mm va 229X324 mm bo'lgan, oluvchining manzili uchun mo'ljallangan bir derazachali, shuningdek, ikki derazachali konvertlarni joriy qilishning maqsadga muvofiqligi ko'rib chiqilgan.

Bunday konvertlarni joriy etish katta miqdorda korrespondensiyalarni xizmat qog'ozlarda (banderollarda) jo'natuvchi tashkilot va jismoniy shaxslar uchun yozma korrespondensiyalarni rasmiylashtirishni yengillashtiradi.

Yozma korrespondensiyalarni saralash.

Pochta aloqasi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar davlat va jamiyat uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib juda ham ommabop bo'lib hisoblanadi. Chunki u jamiyatning ham maqatlami davlat hokimiyati va boshqaruvining hamma bo'g'in va tartibini qamrab olgan. Pochta aloqasi korxonasi pochta xizmati, ya'ni pochta jo'natmalarini (xatlar, banderollar, posilkalar) qabul qilish, qayta ishlash va manzilga yetkazib berish bilan bir qatorda davriy nashrlarni tarqatadi. Kommunal xizmatlar, elektr energiya, gaz ta'minoti uchun to'lovlarni amalga oshirish va shu kabilar bilan shug'ullanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish xalqaro aloqalaning rivojlanishi o'z navbatida pochta aloqalarining rivojlanishi yo'nalishini chuqur tahlil etishni taqozo etadi.

Hazir pochta jo'natmasi jo'natuvchidan oluvchiga yetib borguncha yagona ishlab chiqarish jarayonining bir qancha majburiy

bosqichlaridan o'tadi, buning natijasida pochta aloqasi xizmatiga berilgan buyurtma pochta aloqasi mahsulotiga aylanadi. Yagona ishlab chiqarish jarayonini har bir pochta korxonasi uchun o'ziga xos bo'lgan va ularda to'la bajariladigan alohida jarayonlarga ajratish mumkin. Ularda chiqayotgan, kirayotgan va tranzit pochta jo'natmalariga ishlov berish jarayonlari kiradi.

Pochta jo'natmalariga ishlov berish, mijozlardan qabul qilib olingan yoki boshqa aloqa korxonalaridan kelib tushgan pochta jo'natmalarini belgilangan manzil bo'yicha jo'natishga va topshirishga tayyorlashni ta'minlovchi ishlab chiqarish jarayonlari majmuasi o'z ichiga oladi.

Jo'natilayotgan yozma korrespondensiyalar, yuborilayotgan jo'natmalarga ishlov berish va matbuotni tashishdagi asosiy jarayonlarni ko'rib chiqamiz.

Jo'natilayotgan yozma korrespondensiyalarga ishlov berishda quyidagi asosiy ishlar amalga oshiriladi: qabul qilib olish va pochta korxonasiga yetkazish, ajratish, o'nglash-tamg'alash, saralash, postpaketlarni taxlab qoplarga joylash va ularni berkitish, almashish sexiga yetkazib berish.

Pochta jo'natmalarini **qabul qilib olish**— ishlab chiqarish jarayonining dastlabki bosqichi bo'lib, bevosita jo'natuvchidan yoki pochta qutisi orqali pochta aloqasi korxonasiga kelib tushgan pochta jo'natmalarini rasmiylashtirishdan iborat.

Ajratish— yozma korrespondensiyalarni xillari, toifalari, turlari va o'lchamlari bo'yicha guruhlariga ajratishdan iborat dastlabki ishlov berish.

O'nglash— yozma korrespondensiyalarni tamg'alash va manzilini o'qish uchun qulay holatda qilib, manzil yozilgan tomoni bo'yicha taxlashdan iborat bo'lgan dastlabki ishlov berish.

Tamg'a (shtempel) bosish- pochta jo'natmasi qabul qilingan (pochta korxonasiga kelib tushgan) joy, sana va vaqtni belgilash, shuningdek, pochta to'lovi amalga oshirilganligini ifodalash uchun pochta jo'natmalariga va ishlab chiqarish hujjatlariga taqvimli tamg'a nusxasini tushirish.

Saralash — pochta jo'natmalarini manzil belgilari bo'yicha guruhlariga ajratish. Umumiy va mufassal saralash usullari mavjud. Umumiy saralash yiriklashtirilgan hududiy belgilar (yo'nalishlar va yirik shaharlar) bo'yicha amalga oshiriladi, mufassal saralash esa viloyatlar, o'lkalar, respublikalar, tumanlar, shaharlar, temir yo'l qoshidagi va aniq

manzilli aloqa korxonalari, shuningdek, pochta vagonlari yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Xatlarning katta qismi postpaketlarga solingan holda jo'natiladi. **Postpaket**— yo'nalish belgisi bo'yicha guruhga ajratilgan, bog'langan yoki qog'oz qobiq bilan o'ralgan, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xatlar to'plami.

Jo'natilayotgan xatlarga ishlov berishdagi yakunlovchi amaliyot — postpaketlarni bog'lash — o'rash va saralab qoplarga joylash, hamda bu qoplarni ham yopib, almashish sexiga jo'natish. Postpaketlarni bog'lash-o'rash — bu postpaketda, qopda, qutida, konteynerda jo'natiladigan pochta jo'natmalarini taxlash, joylash, qayd qilish, bog'lash va o'rash amaliyotlarini, shuningdek, Pochta qoidalariga muvofiq ravishda ularni rasmiylashtirish ishlarini o'z ichiga oluvchi jarayondir.

Yuborilayotgan jo'natmalar ustida qabul qilish punktida quyidagi ishlar bajariladi: mijozlardan qabul qilib olish, saralash, manzillar bo'yicha saralash, mayda va qimmatli jo'natmalarni qoplarga joylab bog'lash, jo'natish hujjatlarini rasmiylashtirish, avtomashinalarga yuklash. Jo'natmalar belgilangan manzilga jo'natuvchi tomonidan to'ldirilgan, ilova xat bilan birgalikda yuboriladi. Jo'natma qabul qilib olinayotganda jo'natmaning to'g'ri o'rab bog'langanligi, manzil va ilova xatlarning to'g'ri to'ldirilganligi tekshiriladi. Pochta qoidalarida ko'zda tutilgan, ba'zi hollarda esa jo'natmani bog'lab tamg'a bosiladi. Keyin jo'natmaning og'irligi o'lchanadi, ta'rif bo'yicha baholanadi va yuboruvchi belgilagan pulni to'lagach, unga patta beriladi. Jo'natmalar pochta aloqasi bog'lamasi korxonalarida saralanadi. Bu yerda ular pochta qoidalarida ko'zga tutilgan belgilariga qarab ajratiladi, keyin esa ularni manzili ko'rsatilgan ilova xatlari bilan birgalikda belgilangan tartibda saralanadi. Saralangan jo'natmalar manzili ko'rsatilgan ilova xat asosida yuk xatga yoziladi va ilova xat bilan birgalikda belgilangan manzilga jo'natiladi.

Matbuotni tashish deb, ilova hujjatlarni tayyorlash, bosmaxonalardan davriy nashrlarni qabul qilib olish, jo'natmalarni shakllantirish, nashrlar solingan qop va o'ramalarni belgilangan manzilga jo'natish uchun topshirish ishlarini o'z ichiga olgan ishlab chiqarish jarayoniga aytiladi.

Obuna nashrlar varaqa va manzil tizimi bo'yicha jo'natiladi. Varaqa tizimi bo'yicha tashishda gazeta va jurnallar nashr tashuvchi korxonalar tomonidan gazeta tarqatish bog'lamalariga (uzellariga) obunachilar manzilini ko'rsatmay, saralash jadvallariga muvofiq ravishda umumiy

miqdorda jo'natiladi. Manzil tizimi bo'yicha tashishda har bir nusxada obunachi manzili ko'rsatiladi.

Saralash jadvalida gazeta tarqatish bog'lamalari, aloqa bo'limlari yoki yetkazib berish uchastkalarining ro'yxati va ularning har biri uchun mo'ljallangan muayyan davriy nashr nusxalarining soni ko'rsatilgan bo'ladi.

Nashr jo'natmasi deb, gazeta tarqatish bog'lamasiga bir vaqtda jo'natilayotgan bir yoki bir nechta nomlanishdagi davriy nashrlar guruhiga aytiladi.

Gazeta tarqatish bog'lamasi matbuot jo'natuvchi korxonalaridan bevosita davriy nashrlarni olib, ishlov beruvchi va o'ziga birlashtirilgan pochta aloqasi bo'limlariga boruvchi yoki obunachilarga topshiruvchi pochta aloqasi korxonasi hisoblanadi.

Pochta jo'natmasi harakatining yakunlovchi bosqichi topshirish bo'lib, u oluvchiga yoki uning ishonchli shaxsga bevosita pochta aloqasi korxonasida yoki uyiga olib borib berish orqali topshirishdan iborat.

Kalit so'zlar :

Pochta jo'natmalari deb, pochta qoidalari bo'yicha o'ralgan va rasmiylashtirilgan jismlarga, shuningdek, belgilangan manzilga jo'natish va oluvchiga topshirish uchun pochta aloqasi korxonasiga topshirilgan nashriy matbuotlarga aytiladi. Ma'lum vaqt oralig'ida qabul qilingan, ishlov berilgan, jo'natilgan va belgilangan manzilga topshirilgan pochta jo'natmalarining soni **pochta almashish** deyiladi. **Aloqa korxonasi** umumdavlat aloqa tarmog'i tizimidagi alohida ishlab chiqarish birligi hisoblanib, ma'lumotlarni uzatish jarayonini tashkillashtiradi. Zamonaviy pochta tarmog'i yuqori darajada mexanizatsiyalashgan sanoat tipidagi korxonalar bo'lib, ularda pochta jo'natmalariga ishlov berish uchun avtomatlashtirilgan texnika vositalari (maxsus mashinalar va uskunalar) keng qo'llaniladi.

Pochta jo'natmalariga ishlov berish borasidagi asosiy va qo'shimcha ishlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan maxsus pochtaga ishlov beruvchi mashinalar, mexanizmlar va qurilmalarga yozma korrespondensiyalarga ishlov berish uchun mo'ljallangan avtomatik ajratuvchi, ustiga shtamp bosuvchi va saralovchi mashinalar, jo'natmalarni va nashr o'ramalarini saralovchi yarim avtomat mashinalar, qop tikuvchi, o'rovchi, manzil yozuvchi va boshqa mashinalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Sokolov V.P, Tarasova N.P, Livinc V.M. *Teoreticheskie sredstva avtomatizacii pochtovoy svyazi, uchebnik dlya VUZov, -M.-Radio i svyaz', 1998g.*
2. Barsuk V.A, Gubin N.M, Baty'y A.R. *E`konomiko-matematicheskie metody' i modeli v planirovanii i upravlenii v otrasli svyazi. Uchebnik dlya VUZov,-M.-Radio i svyaz', 1990g.*
3. Macnev V.N, Tihonov A.F. *Organizaciya, planirovaniya i ASU predpriyatiyami pochtovoy svyazi. -M.- 1990g*
4. Sokolov V.P YAstrebov A.S. *Tehnicheskie sredstva avtomatizacii pochtovoy svyazi. -SPb, 2000g.*
5. Hly'tchev S.M., Tarasova N.P., Livshic V.M. *Teoreticheskie osnovy' pochtovoy svyazi. - M.: Radio i svyaz', 1990g.*

Qo'shimcha adabiyotlar

1. M.M.Mahmudov, G.S.Abdulazizova, G.N.Nazarova "Pochta xizmati texnologik jarayonlari" Toshkent«IQTISOD-MOLIYA»2010